

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI



**MANBASHUNOSLIK VA TARIXSHUNOSLIK
O'QUV DASTURI**

Bilim sohasi:	200 000 – San'at va gumanitar fanlar
Ta'lim sohasi:	220 000 – Gumanitar fanlar (tillardan tashqari)
Ta'lim yo'nalishi:	60220300 – Tarix

Chirchiq – 2024

Fan/modul kodi MT1308		O'quv yili 2025-2026	Semestr 4	ECTS - Kreditlar 4			
Fan/modul turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 4			
1.	Fanning nomi		Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)		
	Manbashunoslik va tarixshunoslik		60	60	120		
I. Fanning mazmuni							
<p>Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarda manbashunoslik va tarixshunoslikning vazifasi, predmeti va obyekti, tadqiqot va manbalarning turlarini va tadqiqotlar natijalarini jamlash, manbashunoslikning nazariy masalalarini, manbalarni ichki va tashqi tahlil qilishni hamda manbalarni har tomonlama ilmiy-qiyosiy tahlil qilishga oid bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdir.</p> <p>Fanning vazifasi – talabalarga manbalar va tarixiy tadqiqotlarning manbashunoslikdagi va tarixshunoslikdagi o'rni, tarix bilimini targ'ib qilishning shakllari, O'rta Osiyo xalqlarining tarixi bilan bog'liq manbalar haqida umumiy ma'lumot olishi, ta'lif jarayonida manbalar va ilmiy tadqiqotlardan kichik ilmiy ishlarida foydalishni o'rgatishdan iborat.</p>							
II. Nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)							
III. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:							
1-mavzu. Tarixshunoslik fani va uning vazifasi							
<p>Tarix fanining vujudga kelishi va o'tmishni o'rganishdagi dastlabki malakalar. Tarix fanining tarkibiy qismlari. Tarix bilimlarini rivojlanishi va o'zgarishlarini aniqlovchi omillar. Tarix fanidagi izchillik. Tarix fanidagi maktablar.</p> <p>"Tarixshunoslik" atamasi. Tarixshunoslikning obyekti, predmeti va vazifasi. Tarixshunoslik tarix fanining maxsus sohasi va o'quv fani sifatida. Tarixshunoslikning rivojlanish bosqichlari. Tarixshunoslikda tadqiqotlarning tahlil qilish usullari. Qiyosiy tarixiy usul. Aniq tahliliy usul. Mantiqiy tahliliy usul. Xronologik usul. Davriylashtirish usuli. Retrospektiv tahlil. Tadqiqotlarda mavzuning o'rganilish darajasini tadqiq qilish. Tadqiqotlarni davrlashtirish.</p>							
<p>XX asrning 90-yillarda O'zbekiston tarixshunoslik fani rivojida yangi davrning boshlanishi. Nazariy-metodologik masalalarining ishlab chiqilishi. Ilmiy maktablarning shakllanishi. O'zbekistonda tarixshunoslik fani va tarix fanidagi metodologiyalar. Mustaqillik davridagi o'zgarishlar. Fanlar akademiyasi Tarix instituti tarix fani metodologiyasini va tarix fani konsepsiyasini ishlab chiqarishdagi roli.</p>							
2-3-mavzu. O'zbekiston qadimgi davr tarixinining o'rganilishi							

O'zbekistonning qadimgi tarixi tarixshunosligi. O'zbekistonning qadimgi davr tarixi haqida umumiy ma'lumot, uning o'ziga xos tomonlari. O'zbekistonning qadimiy tarixiga oid arxeologik tadqiqotlar. Qadimgi davr tarixiga oid numizmatik tadqiqotlarni o'rganish.

Qadimgi epigrafik manbalar (Behistun, Persepol, Naqshi Rustam, Doro I, Ayrитом bitklari)ning o'rganilishi. Avesto, Qadimgi Hind manbalariga doir tadqiqotlar. O'rta Osiyo haqidagi antik davrda yaratilgan asarlarining tadqiq etilishi.

4-5-mavzu. O'zbekistonda o'rta asrlar tarixining o'rganilishi

Sharq qo'lyozmalarini va ularning dunyo sivilizatsiya tarixidagi o'rni. O'rta asrlar tarixnavisligining xalq ijodiyoti, an'analar bilan uzviy bog'liqligi. Arab, fors, yunon va turk tilidagi qo'lyozmalar va ularning tarix fanining rivojlanishidagi o'rni.

O'rta asrlarda yaratilgan asarlarning tarixshunoslik jihatidan tahlili. O'rta asrlarda tarixnavislik muktabalaridagi an'analar. O'rta asrlarda yaratilgan tarixiy asarlarning o'rganilishi. XIX asr oxiri - XX asr boshlarida sharqshunoslar tomonidan qadimgi va o'rta asrlar tarixining o'rganilishi. XX asrda qadimgi va o'rta asrlar tarixining yoritilishi. Mustaqillik yillarda qadimgi va o'rta asrlar tarixiga oid tadqiqotlar.

6-7-mavzu. Amir Temur va temuriylar davri tarixshunosligi

Tadqiqotlarda Amir Temur shaxsi va uning siyosiy faoliyati masalalarining yoritilishi. "Temur tuzuklari"ning o'rganilishi. Mirzo Ulug'bek va Zahriddin Muhammad Boburning ilmiy merosining o'rganilishi. Tarixning turli davrlarida Amir Temur va temuriylar davri tarixini o'rganishga bo'lgan munosabat.

XIX asr oxiri - XX asr boshlarida temuriylar davri ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayoti masalalarining yoritilishi. Temuriylar davrida yaratilgan tarixiy asarlarning o'rganilishi.

Mustaqillik yillarda Amir Temur va temuriylar davri tarixining tadqiq etilishi. Temurshunos olimlarning ilmiy faoliyati.

Xorijiy davlatlarda temuriylar davriga oid tadqiqotlar.

8-9-mavzu. O'rta Osiyo xonliklari tarixshunosligi

O'rta Osiyoda mahalliy tarixnavislikning shakllanishi va asosiy yo'nalishlari. XVI-XIX asrning birinchi yarmida O'rta Osiyo tarixshunosligining o'ziga xos xususiyatlari. Tarixiy tadqiqotlardagi yondoshuvlar. XVI-XIX asrning birinchi yarmida Yevropada O'rta Osiyo haqidagi tarixiy geografik tadqiqotlar.

O'rta Osiyo xonliklarining tashkil topishi, ma'muriy hududiy tuzilishi, boshqaruvin tizimi, hukmron sulolalar. Xonliklar tarixining asosiy bosqichlari. Rossiya imperiyasining Qo'qon, Buxoro va Xiva xonliklariga harbiy tajovuzi. Qo'qon xonligining tugatilishi. Buxoro va Xiva xonliklari siyosiy qaramlik davrida. Vatan tarixshunoslida O'rta Osiyo xonliklarini o'rganishning asosiy

bosqichlari. Tarixiy tadqiqotlarda xonliklar xaqidagi bilimlarning aks etishi va ularga hukmron tuzum ta'siri.

Mustaqillik davri tarixshunosligida xonliklar tarixiga yangicha yondoshuvlar va ularning nazariy-konseptual, metodologik asoslari. Mustaqillik davri tarixshunosligida xonliklarning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy va tashqi aloqalari tarixiga oid tadqiqotlar. O'rta Osiyo xonlari diplomatic yozishmalarining o'rganilishi va ularning ayrim xususiyatlari. Xonliklardagi harbiy siyosat va qo'shinlar holati tarixi. Shaharlar tarixining o'rganilishi. Xorijiy tadqiqotchilar tomonidan O'rta Osiyo xonliklaridagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayot masalalarining o'rganilishi.

10-11-mavzu. Turkistonning XIX asr o'rtalari – XX asr boshlari tarixi tarixshunosligi

Sharqshunoslarning O'rta Osiyoning qadimgi va o'rta asrlar tarixi, etnografiysi, epigrafikasi va numizmatikasiga oid tarixiy asarlari. XIX-XX asrning boshlarida yaratilgan tarixiy-etnografik asarlar. O'rta Osiyo xonliklarining Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi masalalarining o'rganilishi. Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi davri tarixshunosligi. Davriy matbuotda xonliklar hayotiga oid ma'lumotlar. "Туркестанский сборник" va statistik tadqiqotlarda Buxoro, Xiva, Qo'qon xonliklari haqidagi ma'lumotlar.

Turkistonda bolsheviklar hukmronligi va uning xonliklarga ta'siri. Buxoro va Xiva xonliklarining tugatilishi.

Jadid mutafakkirlarining tarix, tarix fani va ta'limi hamda tarixshunoslik haqidagi dunyoqarashlari.

12-13-mavzu. Sovet davrida O'zbekistonda tarix fani va tarixshunosligi

Sovet davri tarixshunoslaringin o'ziga xos xususiyatlari va nazariy-konseptual asoslari. Sovet davri tadqiqotlarida O'zbekiston tarixini bir yoqlama talqin etilishi.

XX asrning 20-30 yillarda tarix fani. O'zbekistonda ilmiy muassasalar va oliv o'quv yurtlarining tarixchi mutaxassislarni tayyorlashdagi o'rni. Tarix institutining tashkil etilishi. Tarix fakultetlari va kafedralarining ochilishi O'zbekiston Fanlar Akademiyasining tashkil etilishi.

O'zbekistonda sharqshunoslik. Sharqshunoslarning tarixshunoslikni rivojlantirishga qo'shgan hissasi O'zbekistonda arxeologiya va etnografiyaga oid tadqiqotlar. Arxeolog va etnograflarning tarix fanining rivojlanishiga qo'shgan hissasi. O'rta Osiyolik allomarning fan tarixi, madaniyat, O'rta Osiyo xalqlari san'atiga oid qo'lyozma manbalarini, ilmiy merosining o'rganilishi.

14-mavzu. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda tarix fani

Tarix faniida yangi dunyo qarashlar. Tarixga qiziqishning ortishi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston FA Tarix instituti faoliyatini takomillashtirish" haqidagi (1998-yil) qarori.

“O‘zbekistonning yangi tarixi” markazi tashkil etilishi va faoliyati. Tarix institutining ilmiy faoliyati. Tarixchilar tomonidan davriy, ilmiy, ilmiy-ommabop to‘plamlarning nashr etilishi. Ilmiy anjumanlar va ularda o‘zbek davlatchiligi tarixi masalalarining yoritilishi. Zamonaviy arxeologiya, etnografiya va manbashunoslikning vazifalari. Og‘zaki tarix. Tarixga bag‘ishlangan ilmiy jurnallarning O‘zbekiston tarixning yoritishdagi o‘rnii.

15-mavzu. Tarixshunoslikning fan sifatida rivojlanishi va muammolar

Mustaqillik yillarda O‘zbekiston tarixshunoslik fani rivojida yangi davrning boshlanishi. Nazariy-metodologik masalalarining ishlab chiqilishi. Ilmiy maktablarning shakllanishi. O‘zbekistonda tarixshunoslik fani va tarix fanidagi metodologiyalar. Mustaqillik davridagi o‘zgarishlar. Fanlar akademiyasi Tarix instituti tarix fani metodologiyasini va tarix fani konsepsiyasini ishlab chiqarishdagi roli. “Tarixshunoslik o‘qishlari”.

O‘zbekistonda tarixshunoslik tadqiqotlari ko‘lami, rivojlanishi. O‘rta Osiyo mutafakkirlari, tarixchilari ilmiy merosini o‘rganish borasidagi keng qamrovdagи jarayonning boshlanishi. Tarix sohasidagi tadqiqotlarda yangi shakl va janrlarning vujudga kelishi. Tadqiqotlarning metodologiyasi masalalari. Mashhur mahalliy tarixchilar ilmiy merosiga yangicha qarashlar.

O‘zbek davlatchiligi tarixining yangi konsepsiyasining paydo bo‘lishi. O‘zbek davlatchilik tarixining kompleks ravishda o‘rganilishi. O‘rta Osiyo tarixining turli davrlarining tarixshunoslik jihatidan yoritilishi. Muammoviy tarixshunoslik masalalari. Zamonaviy tarixshunoslik va istiqboldagi vazifalar.

III. Seminar mashg‘ulotlar bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg‘ulotlarida talabalar Tarix fanida innovasiyalar: texnologiyalar, modellar va metodlar fanidan ma’ruza darslarida olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash bilan birga, seminarlar mavzulari bo‘yicha tayyorgarlik ko‘rish jarayonida qo‘srimcha adabiyotlar va tarixiy manbalar bilan tanishish orqali qo‘srimcha bilim va xulosalar chiqarish ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. Natijada, ularning bilim doiralaril ilmiy jihatdan asoslangan holda kengayadi.

Seminar mashg‘ulotlari uchun quyidagi mavzular tavsija etiladi:

1. Tarixshunoslik fani va uning vazifasi
2. O‘zbekiston qadimgi davr tarixining o‘rganilishi
3. O‘zbekiston qadimgi davr tarixining o‘rganilishi
4. O‘zbekistonda o‘rta asrlar tarixining o‘rganilishi
5. O‘zbekistonda o‘rta asrlar tarixining o‘rganilishi
6. Amir Temur va temuriylar davri tarixshunosligi
7. Amir Temur va temuriylar davri tarixshunosligi
8. O‘rta Osiyo xonliklari tarixshunosligi
9. O‘rta Osiyo xonliklari tarixshunosligi
10. Turkistonning XIX asr o‘rtalari – XX asr boshlari tarixi tarixshunosligi
11. Turkistonning XIX asr o‘rtalari – XX asr boshlari tarixi tarixshunosligi

12. Sovet davrida O'zbekistonda tarix fani va tarixshunosligi
13. Sovet davrida O'zbekistonda tarix fani va tarixshunosligi
14. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda tarix fani
15. Tarixshunoslikning fan sifatida rivojlanishi va muammolar

Mustaqil ta'lif va mustaqil ishlar.

Mustaqil ta'lifdan ko'zlangan maqsad va vazifalar - bu talabalarda mustaqil bilim olish ko'nigmalarini shakllantirishdan iborat.

Mustaqil ta'lif seminar mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rishdan tashqari fan dasturida ko'rsatilmagan, ammo fan bo'yicha talabaning bilim doirasini kengaytiruvchi qo'shimcha mavzular doirasida berilgan topshiriqlarni bajarishni o'z ichiga oladi.

Mustaqil ta'lifni baholash – bu talabalarining jamoaviy tartibda va yakka tartibda berilgan amaliy loyihalarni bajarishlari orqali amalga oshiriladi. Bunda har bir talabaga bitta jamoaviy loyiha va ikkita yakka tartibda bajariladigan loyiha beriladi. Talaba berilgan loyihaning maqsad va vazifalarini, mohiyatini tushungan holda qo'yilgan masalani o'rganib, izlanishlar olib boradi. Olingan natijalarni tahlil qilib, xulosalari bilan taqdimotlar tayyorlab himoya qiladi. Ishchi fan dasturida loyihalarning soni, mavzusi, mazmuni bajarish usullari va topshirish muddatlari to'liq ochib beriladi.

V. Mustaqil ta'lif uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Manbashunoslikning fan sifatida rivojlanishi
2. Tarixiy, nazariy va amaliy manbashunoslik
3. Manbashunoslik sohasining boshqa fanlar bilan bog'liqligi
4. Yozma manbalarning asosiy xillari
5. Forsiy tilda arab yozuvida yozilgan dastlabki manbalar
6. Arab yozuvidagi turkiy yozma meros
7. Qo'lyozmalarning jahon bo'ylab tarqalish sabablari
8. O'zR FA Sharqshunoslik instituti Sharq qo'lyozmalari xazinasi
9. Temuriylar saltanati tarixiga oid forsiy tarixiy yozma manbalar
10. O'rta Osiyo haqida XVII asrgacha yozilgan yevropa tillaridagi yozma ma'lumotlar
11. Turkiston general-gubernatorligi kanselyariyasi materiallari O'rta Osiyo tarixiga oid manba
12. Avesto. Behustun, Persepoldagi yozuvlar - qadimgi epigrafika yodgorligi sifatida
13. Sharq qo'lyozmalari va ularning sivilizatsiya tarixidagi o'rni
14. XII-XIV asrlarda O'rta Osiyoda tarixiga oid xotiralar muhim manba sifatida
15. Ilmiy tadqiqotlarning turlari
16. O'rta Osiyo xonliklari tarixi xorijiy tarixshunoslikda
17. XVI-XIX asrning birinchi yarmida O'rta Osiyo haqidagi tarixiy geografik tadqiqotlar

18. XIX-XX asrning boshlarida Rossiya olimlari tomonidan O'rta Osiyoning o'rganilishi
19. Mustaqillik yillarda O'zbek davlatchiligi tarixiga oid ilmiy tadqiqotlarning olib borishi
20. Mustaqillik yillarda O'rta Osiyo xonliklarida tarixining o'rganilishi
21. Mustaqillik yillarda Amir Temur va temuriylar davri tarixining tadqiq etilishi
22. Mustaqillik yillarda ilmiy nashrlarga O'zbekiston tarixining yoritilishi
23. Tarixiy bilimlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi. (Jamiyatning tarixiy bilimlarga bo'lgan ehtiyojining paydo bo'lishi. Xalq og'zaki ijodiyoti. Yozuvning paydo bo'lishi. Davlat va tarixiy bilimlar vazifasining o'zgarishi
24. Xorazmshoh – Anushteginlar sulolası tarixshunosligi
25. Turkiy va eroniyzabon xalqlar o'rtasidagi madaniy munosabatlar tarixshunosligi
26. Turk-so'g'd simbiyozi tarixshunosligi
27. Turk hoqonligining vujudga kelishi tarixshunosligi
28. Turkistonda milliy ozodlik harakatini yoritishning tarixshunosligi
29. Turkistonda Mustabid Sovet hokimiyatiga qarshi qurolli harakat tarixshunosligi
30. Somoniylar davlati tarixshunosligi
31. Sharofiddin Ali Yazdiy "Zafarnoma" asarida tarixiy izchillik prinsiplari tahlili
32. Rui Gonseles de Klavixo "Kundalik"larining o'rganilishi
33. O'zbekistonda tarixni o'rganishda jahon tarixshunosligrining ahamiyati
34. O'zbekistonda 1985-1991 yillarda tarix fani
35. O'zbek xalqining etnik shakllanish tarixshunosligi
36. O'rta Osiyoning Rossiya tomonidan bosib olinishi tarixshunosligi
37. O'rta Osiyo masalasida Angliya va Rossiya o'rtasidagi raqobat tarixshunosligi
38. Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asarini tarixiylik nuqtai-nazaridan o'rganish
39. Muhammad Yusuf Bayoniy "Shajarai Xorazmshohiy" asarida Turkiston istilosi tarixining yoritilishi
40. Muhammad Yusuf Munshiy "Tarixi Muqimxon" asarining ahamiyati
41. Qo'qon xonligi tarixshunosligi (Fazliyning "Umarnoma", Muhammad Hakimxonning "Muntaxab ut-tavorix", Toshkandiylar Attor Ho'qandiy, Muhammad Aziz Marg'inoniy asarlarda xonlik tarixi masalalari yoritilishi)
42. XVI-XVII asrlardagi tarixiy-jo'g'rofiy asarlar
43. Ibn Battutaning sayohati xotiraları
44. Tarix fani va totalitar tuzum. "Turg'unlik va qayta qurish" davri tarixshunosligi
45. XI-XII asr tarixchilarining tarixiy-siyosiy dunyoqarashi (Abu Nasr Utbiy, Abu Nasr Gardiziylar. Abul Fazl Bayhaqiy (995-1077)ning "Tarix Ma'sudiyy" asari)

	VI. Ta’lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)
3.	<p>Fanni o’zlashtirish natijasida talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> • manbalarni turkumlashdagi asosiy tamoyillar, manbashunoslik va tarixshunoslikning rivojlanish bosqichlari, tarixshunoslikda tadqiqotlarning tahlil qilish usullari, muammoviy tarixshunoslik masalalalari, tadqiqotlarning metodologiya masalalari, og’zaki tarix, muammoviy tarixshunoslik, O’rtta Osiyoning tarixiga oid manbalar va tadqiqotlar, Mustaqillik yillarda O’zbekistonda tarix fanidagi tadqiqotlarga haqida <i>bilishi</i> kerak; • talaba O’rtta Osijo tarixiga oid xorijiy tillardagi yozma manbalarni tahlil qilish. O’zbekistonning mustaqillik yillardagi tarixiga oid manbalarni o’rganish, arab yozuvidagi dastlabki manbalarni tadqiqot ishlarida qo’llay olish, manba va tadqiqotlarni mazmuniga ko’ra guruhlarga bo’la olish, tadqiqotlarda mavzuning o’rganilish darajasini tadqiq qilish <i>ko’nikmalariga ega bo’lishi</i> kerak; • talaba tarix fanining vujudga kelishi va rivojlanishi, manbashunoslik va tarixshunoslikning premetti, obyekti va vazifalarini farqlay olish, nazariy manbashunoslik, amaliyotda tarixiy manbalarning va tadqiqotlarning asosiy turlarini ajrata olish, manbalarni o’rganish: aniqlash, tiklash, tahlil qilishga oid <i>malakalariga ega bo’lishi</i> kerak.
4.	VII. Ta’lim texnologiyalari va metodlari:
	<ul style="list-style-type: none"> • ma’ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • individual loyihibar; • jamoa bo’lib ishslash va himoya qilish uchun loyihibar
5.	<p>VIII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to’la o’zlashtirish, tahlil natijalarini to’g’ri aks ettira olish, o’rganilayotgan jarayonlar va tushunchalar haqida mustaqil mushohada yuritish, joriy va oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshirqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo’yicha og’zaki savol javob, yozma ish yoki test topshirishi zarur.</p>
6.	<p style="text-align: center;">IX. Adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. S. A. Toshtemirova "Tarixshunoslik" "Zebo- Print" T-2022 2. Alisher Doniyorov "Markaziy Osiyo xalqlari Tarixshunosligi "Nif MSh" T-2020 3. S. A. Toshtemirova, D. B Ahmadjonov " Markaziy Osiyo xonliklari Tarixshunosligi " Zebo Print" T-2022 4. Alisher Doniyorov "Markaziy Osiyo xalqlari tarixi " (yaxshi va eng yangi davr) " Book Trade" T-2022 <p style="text-align: center;">Asosiy adabiyotlar</p> <p style="text-align: center;">Qo’shimcha adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo’limizni qat’iyat bilan davom

- ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. T.1. – T: O‘zbekiston, 2017.
2. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent.: O‘zbekiston. 2017.
 3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T: O‘zbekiston, 2017.
 4. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birligida barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq. – T: O‘zbekiston, 2016.
 5. Бўриев О. Темурийлар даври ёзма манбаларида Марказий Осиё. – Т., 1997.
 6. История Узбекистана в источниках. Известия путешественников, географов и ученых XVI – первой половины XIX века / Составитель Б.В.Лунин. – Т.: Фан, 1988.
 7. Источниковедение: Теория. История. Метод: Учебное пособие / И.Н.Данилевский, В. В.Кабанов и др. – М., 1998.
 8. Ключевский В.О. Курс лекций по источниковедению: Соч. в 8-и томах. – М., 1959.
 9. Сайдуллаев А. Қадимги Ўзбекистон илк ёзма манбаларда. – Т: Ўзбекистон, 1996.
 10. Сайдобоев З. Европада Ўрта Осиёга оид тарихий-картографик маълумотлар(XVI-XIX асрлар). – Т: Фан, 2008.
 11. Ўзбекистон тарихи (хрестоматия). 3-жилд. – Т.: “Fan va texnologiya”, 2014.
 12. Ўзбекистон тарихига оид манба ва тадқиқотлар (XIX-XX аср бошлари) / Масъул мухаррир: Д.Х. Зияева. – Т: Nurafshon business, 2022.
 13. Ahmedov B. O‘zbekiston tarixi manbalari. – T: O‘qituvchi, 2001.
 14. Manbashunoslik. (Darslik) // Masul muharrir D.Alimova. – T: Turon-Iqbol, 2019.
 15. O‘zbekiston tarixi (O‘zbekiston tarixi va manbalari). Xrestomatiya. II-VI jildlar. – T: “O‘zbekiston” NMU, 2023.
 16. Алимова Д.А. История как история, история как наука. Т. I. История и историческое сознание. – Т: Ўзбекистон, 2008.
 17. Насруллаев Н. Манбашунослик асослари. Дарслик. – Т: Navro‘z, 2020.

Axborot manbalari

- [www.pedagog.uz \(Respublika pedagogika talim muassasalarini portal\)](http://www.pedagog.uz)
[www.cspl.uz \(Chirchiq davlat pedagogika universiteti web-sayti\)](http://www.cspl.uz)
[www.edu.uz \(O‘zbekiston Respublikasi ta’lim portal\)](http://www.edu.uz)
[www.unilibrary.uz \(Yagona elektron kutubxona axborot tizimi\)](http://www.unilibrary.uz)
[www.natlib.uz \(A.Navoiy nomidagi O‘z.MK\)](http://www.natlib.uz)
[www.ziyonet.uz \(Ziyonet axborot-ta’lim resurslari portal\)](http://www.ziyonet.uz)

Chirchiq davlat pedagogika universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va

7.	universitet Kengashining 2024 yil “<u>29</u>” <u>o'qyent</u> dagi qarori bilan tasdiqlangan
8.	Fan/modul uchun ma'sul: O.H. Jaynarov – CHDPU, “Tarix” kafedrasi dotsenti, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
9.	Taqrizchilar: Z.A. Saidboboyev – O‘zMU, tarix fakulteti “Manbashunoslik va arxivshunoslik” kafedrasi professori, tarix fanlari nomzodi Sh.B. Jumayeva – CHDPU, “Tarix” kafedrasi dotsenti, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)